

LINGVOKULTUROLOGIYANING FAN SIFATIDA SHAKLLANISHI

Raimova Odinabonu Anvarjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu ishda lingvokulturologiyaning fan sifatida shakllanish jarayoni yoritilgan. Unda til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, lingvokulturologiyaning paydo bo'lish omillari hamda rivojlanish bosqichlari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, faning asosiy yo'nalishlari va ularning mazmuni qisqacha tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida lingvokulturologiyaning zamonaviy tilshunoslikdagi o'rni va ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, til va madaniyat, antropotsentrik yondashuv, mentalitet, lingvomadaniyat, diaxronik yondashuv, qiyosiy tahlil, chog'ishtirma tahlil, madaniy qadriyatlar, tilshunoslik.

Аннотация. В данной работе рассматривается процесс становления лингвокультурологии как научной дисциплины. Освещаются взаимосвязь языка и культуры, факторы формирования лингвокультурологии и этапы её развития. Также кратко анализируются основные направления данной науки и их содержание. В результате исследования раскрывается место и значение лингвокультурологии в современной лингвистике.

Ключевые слова: лингвокультурология, язык и культура, антропоцентрический подход, менталитет, лингвокультура, диахронический подход, сравнительный анализ, сопоставительный анализ, культурные ценности, лингвистика

Abstract. This paper examines the formation of linguoculturology as a scientific discipline. It highlights the relationship between language and culture, the factors contributing to the emergence of linguoculturology, and its stages of development. The main directions of this field and their content are also briefly analyzed. The study reveals the role and significance of linguoculturology in modern linguistics.

Keywords: linguoculturology, language and culture, anthropocentric approach, mentality, linguoculture, diachronic approach, comparative analysis, contrastive analysis, cultural values, linguistics.

XX asrning oxirlariga kelib tilshunoslikda til faqat madaniyat bilan bog'liq vosita emas, balki u bevosita madaniyatning o'zidan kelib chiqqan va uni ifodalaydigan asosiy omil sifatida qarala boshlandi. Shu bilan birga, til madaniyatni yaratish, rivojlantirish va saqlashda muhim rol o'ynaydi. Madaniyat ko'pincha matnlar orqali namoyon bo'ladi va til uning ajralmas qismi hisoblanadi. Chunki aynan til yordamida insoniyatning moddiy va ma'naviy boyliklari yaratiladi. Ana shu qarashlar asosida uzoq vaqt davomida shakllanib kelgan lingvokulturologiya XX asrning 90-yillariga kelib mustaqil yo'nalish sifatida rivojlana boshladi. Bu fan tilshunoslikdagi antropotsentrik yondashuv natijasida yuzaga kelgan bo'lib, keyingi yillarda yanada rivojlanib bormoqda. V.A. Maslova lingvokulturologiya rivojini uch bosqichga ajratadi: Fan shakllanishiga asos bo'lgan dastlabki ilmiy izlanishlarning paydo bo'lishi. Lingvokulturologiyaning alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida shakllanishi. Ushbu sohaning mustaqil va fundamental fan darajasiga yetib borishi. XXI asr boshlariga kelib lingvokulturologiya jahon tilshunosligida muhim yo'nalishlardan biriga aylandi. Bu fan til va nutqda aks etadigan xalq madaniyatini o'rganadi. Asosan, u muayyan xalqning miflari, afsonalari, urf-odatlarini, an'analari, turmush tarzi va ramzlarini tahlil qiladi. Bunday madaniy tushunchalar til orqali kundalik hayotda va muloqot jarayonida mustahkamlanadi.

Lingvokulturologiyaning tavsifi

V.N. Teliya fikricha, lingvokulturologiya, avvalo, muloqot jarayonlari va unda ishlatiladigan til birliklarining xalq tafakkuri bilan bog'liqligini o'rganadi. Bu fan tilni madaniyat bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida ko'rib chiqadi. Til va madaniyat o'zaro chambarchas aloqada bo'lib, ular lingvokulturologiyaning asosiy o'rganish obyekti tashkil etadi. Teliya bu haqda shunday deydi: lingvokulturologiya inson va undagi madaniy omillarni tadqiq etuvchi fanidir. Demak, bu fan markazida inson va uning madaniyati turadi. G.G. Slishkinning ta'kidlashicha, lingvokulturologiya asosan inson omiliga, ya'ni insondagi madaniy xususiyatlarga yo'naltirilgan. Bu esa uning antropologik yondashuvga asoslanganligini ko'rsatadi.

N. Alefirenko lingvokulturologiyani quyidagicha izohlaydi:

bu fan tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan uzviy bog'langan;

u bir nechta fanlarni birlashtiruvchi (sintezlovchi) xususiyatga ega;

uning asosiy e'tibori til orqali ifodalanadigan madaniy ma'nolarga qaratiladi;

lingvokulturologiya natijalari ona tili va chet tillarini o'qitishda amaliy ahamiyatga ega;

bu fan tadqiqotlarida asosan inson omili va til orqali ifodalanadigan madaniy qadriyatlar tizimi o'rganiladi.

Lingvokulturologiyaning asosiy yo'nalishlari

Hozirgi kunga kelib lingvokulturologiyada bir nechta muhim yo'nalishlar shakllangan.

Ular quyidagilardan iborat:

madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi;

diaxronik lingvokulturologiya;

qiyosiy lingvokulturologiya;

chog'ishtirma lingvokulturologiya;

lingvomadaniy leksikografiya.¹

Endi ularning mazmuniga qisqacha to'xtalamiz:

Madaniy munosabatlar lingvokulturologiyasi

Bu yo'nalish jamiyatdagi turli ijtimoiy guruhlar va xalq hayotidagi madaniy aloqalarni o'rganadi. Ya'ni, aniq vaziyatlarda madaniyat va tilning qanday bog'langanini tahlil qiladi.

Diaxronik lingvokulturologiya

Bu yo'nalish ma'lum bir davrga tegishli bo'lgan til va madaniyatdagi o'zgarishlarni o'rganadi. Ya'ni, vaqt o'tishi bilan madaniyatning til orqali qanday o'zgarganini ko'rsatadi.

Qiyosiy lingvokulturologiya

Turli xalqlarning til va madaniyatini bir-biri bilan solishtirib o'rganadi. Bu orqali xalqlar o'rtasidagi o'xshashlik va farqlar aniqlanadi.

Chog'ishtirma lingvokulturologiya

Bu yo'nalish ham solishtirishga asoslanadi, lekin u yanada aniqroq va chuqurroq tahlilni o'z ichiga oladi. Masalan, ayrim tadqiqotlarda bir xalq vakilining boshqa xalq madaniyatiga qanday qarashi o'rganiladi. Misol sifatida, rus va fransuz madaniyatidagi "taqdir", "xavf", "vijdon", "fikir" kabi tushunchalar solishtirib tahlil qilgan.

Lingvomadaniy leksikografiya

Bu yo'nalish til va madaniyatga oid so'zlar, tushunchalar va ularning izohlarini lug'atlar orqali o'rganadi va tizimlashtiradi.

Geografik lug'atlar (Mypannea H.B.9epnona. Cwro.neucx, z sarucl Jft,nrrsoctpano H.B. Aectpza: JIranreo 22 crpaHoBe.qqecnlzir cJroBapb. M., 1992 va h.k.)ni tuzish bilan shug'ullanadigan lingvomadaniy leksikografiya.

Qayd qilinganlar orasida oxirgi yo'nalishning faol rivojlanganligini ko'rish mumkin. Masalan, D. G. Malsevaning lug'ati 25 mavzuiy bo'limni o'z ichiga oladi. Ularda Germaniyaning geografik realiyalari, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tarixi, urf-odatlar, an'analari, afsonalari, aforizmlari, turli bayram va marosimlari, diniy aqidalari, pul birligi,

¹ Lingvokulturologiya. Darslik. Shoira Usmonova

o'lov birligi, sanoati, savdosi, fan va texnikasi, san'ati, ta'limi, milliy taomlari, me'moriy obidalari, milliy xarakteri va h.k.ni ifodalaydigan til birliklari aks etgan. Bunday lug'atlar asosida til va madaniyatning o'zaro aloqasini atroflicha o'rganish mumkin.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalarni tadqiq etilganligini ko'rish mumkin:

1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda miqlar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tur o'rganilgani

2) muayyan uslubda yozilgan asardagi lingvomadaniy konseptning ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan.

3) qiyosiy yo'nalishdagi tadqiqotlar. Bunda ko'proq rus tilidagi birliklar ingliz, nemis, fransuz tillari bilan qiyoslangan

4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. ²Bunda ijtimoiy fanlarda o'quvchi va talabalarga lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish maqsad qilib olingan. o'zbek tilshunosligida lingvokulturologik tadqiqotlar oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Jumladan, Z.I.Soliyevaning nomzodlik ishida o'zbek va ingliz tillaridagi sentensiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlari yoritilgan.

D.Xudoyberganovanning "Matnning antroposentrik tadqiqi" nomli monografiyasining alohida bobi o'zbek tilidagi matnlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Shuningdek, professor N. Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiyaning mohiyati va bu sohada muammolar ko'rsatib berilgan.

Lingvokulturologiya til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni o'rganadigan zamonaviy fan sifatida XX asr oxirlarida shakllana boshladi. Dastlab til faqat aloqa vositasi sifatida qaralgan bo'lsa, keyinchalik uning madaniyatni yaratish, saqlash va ifodalashdagi muhim roli e'tirof etildi. Shu asosda lingvokulturologiya mustaqil ilmiy yo'nalish sifatida rivojlandi. XXI asrga kelib u tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bu fan inson omiliga asoslanib, xalqning mentaliteti, urf-odatlar, qadriyatlar va madaniy tasavvurlarini til orqali tahlil qiladi. Hozirgi kunda lingvokulturologiya turli yo'nalishlarda rivojlanib, til va madaniyatni chuqur o'rganishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Эпоева Л.В. Лингвокультурологические и когнитивные аспекты изучения языка волшебной сказки (на материале английского и русского языков): Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Краснодар, 2007.
2. Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.
3. Rakhmanova, D., Zaripova, G., Rakhmatov, F., & Abdukhalilova, D. (2020). Nemis va ozbek tilshunosligida frazeologizmlar tasnifi. Science and education, 1(8).
5. Raxmanova, D. (2021). Nemis va o'zbek tilidagi vaqt konseptini ifodalovchi frazeologizmlar. Scientific progress, 1(5).
4. Dildora Abdinabiyevna Rahmanova (2021). DIE BEDEUTUNG DES ONLINE LERNENS IM FREMDSPRACHENUNTERRICHT. Academic research in educational sciences, 2 (CSPI conference 2), 470-473.

² Ивченко М.В. Функционально-семантические и лингвокультурологические особенности вербализованного концепта «волшебство» в сказачном и рекламном дискурсах: Автореф. канд. дисс. филол. наук. – Ростов-на-Дону, 2010.

5. Petersen Marilyn. A Treasury of Uzbek Legends and Lore. – Tashkent: Qatortol Kamolot, 2000. – P.125.
6. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978.
7. Lingvokulturologiya. Darslik. Shoiri Usmonova
8. Маҳмудов Н. Тил. –Тошкент: Ёзувчи, 1998.